

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AXBOROT BILAN ISHLASH MADANIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

**Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi kafedrasini mudiri,  
pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

**Davurova Lobar Xo'roz qizi**

*Samarqand viloyati Bulung'ur tumani 19-maktab Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi*


**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot bilan ishlash, ularning mediamadaniyatini shakllantirish, kichik maktab o'quvchisining ijtimoiy-huquqiy me'yorlari haqida tushuncha berish, jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash o'quvchilarning ijtimoiylashuvini shakllantirish haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy, huquq, kompetensiya, ta'lif, o'qituvchi mahorati, qadriyatlar, ma'naviy meros, shaxs kamoloti.*

**“Bola huquqlarini ta'minlash hozirgi zamonning global muammolaridan biri bo'lib, uni hal etish bilan bog'liq masalalar jahon hamjamiyatining doimiy diqqat e'tiborida turibdi. Bu bejiz emas, chunki yosh avlod jamiyat taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlovchi yetakchi kuch hisoblanadi”.**

Ma'lumki bugungi kunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Kichik maktab o'quvchisining ijtimoiy-huquqiy tarbiyasini yoshlikdan shakllantirilmog'i lozim. Yoshlarning ta'lif-tarbiysi doimo dolzarb muammo sifatida e'tirof etiladi. Uning ikkinchi muhim jihatni esa yoshlarning ijtimoiy-huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning roldir. Ijtimoiy-huquqiy tarbiya yoshlikdan boshlanmog'i lozim. Har qanday zamonaviy davlatda axborot hamisha jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqeа va hodisalarini iste'molchiga xolis yetkazib berish va kishilarning ongi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv jarayonida hayotimizning biror bir sohasini ommaviy axborot vositalari siz tasavvur qilib bo'lmaydi. hozirda internet ham ommaviy axborot vositalarining bir ko'rinishi sifatida talqin qilinmoqda. Internet tarmog'i orqali kun davomida qanchadan-qancha axborotlar qabul qilinadi. Internet (International Network- xalqaro kompyuter tarmog'i) bu - vaqt, makon va geografik chegaralarning mavjudligiga qaramay, kompyuter va kichik tizimlarning o'zaro aloqa bog'lab global axborot infratuzilmasini shakllantiruvchi butun jahon

kompyuter tarmog'idir har qanday jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Globalizatsiya ijobiy jihatlari bilan birga qator jiddiy muammolarni ham tug'dirdi. Ularning muayyan qismini hozirgi davrning global muammolari deb atash qabul qilingan. Kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi jihatlariga ko'ra global muammolarni uch guruhga ajratish mumkin.

- 
- 1 • bu kishilar uyushgan jamiyatning tabiatni, turli mintaqalar davlatlarining (masalan, Sharq – G'arb, Janub – Shimol, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar) xilma-xil manfaatlari majmui bilan bog'langan, boshqacha aytganda, baynal ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy o'zaro munosabatlar tug'dirgan muammolardir.
  - 2 • inson va u mansub bo'lgan jamiyat tizimida yuzaga kelgan munosabatlarni ifodalaydigan muammolar kiradi.
  - 3 • jamiyat-tabiat tizimi doirasidagi munosabatlar tug'dirgan muammolarni oladi

G'arb faylasufi Alber Shveyster: "Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi ma'naviyat va axloq. Qolgan barchasi ozmi-ko'pmi ikkinchi darajali", degan edi. Insoniyat tarixiga, xususan, bugungi kunda globallashib borayotgan dunyoda sodir bo'layotgan voqealarga diqqat bilan nazar tashlansa, bu gaplarga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Bugungi kunda bolaning huquqini muhofaza qilib, mediamadaniyatini oshirgan holatda tevarak atrofdagi turli-xil yomon odatlar media vositalaridan tartibli va maqsadli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish muhum. Bugungi kun yoshlari hayotini texnologiya va virtual olam shunchalik egallab olganki uning ta'siri ostida hatto muktab ta'lim tizimi ham shunga moslashib bormoqda. Sababi, zamonaviy pedagog o'z navbatida bolalarning mashg'ul bo'layotgan mashg'ulotlari haqida to'liq tasavvur etishi va o'z navbatida shu orqali undan himoya qilish yoki targ'ib qilish xususiyatini shakllantiradi. Axborot almashinuvida ishtirokchi bo'lgan yoshlarning foydali axborotlardan ko'ra vayronkorlik yoki salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi axborotlardan foydalanishga intilishi oqibatida ularning to'lig'icha onlayn muhit shakllantirib o'zlari uchun alohida kontent shakllantirishi mavjud muammolarni yanada rivojlantirib bormoqda. O'z navbatida ularning fikriy irodasida virtuallik va real hayot chegarasini aniq me'zonlar bilan ajratib olish ko'nikmasi mavjud emas.

Hozirgi davr shaxsi media hayotga ko'nikib borayotgan bo'lsa, XXI asr yoshlari o'z navbatida shuning ichida katta bo'limoqda va shu sababli ularning

hayotini media dunyo, yoki virtual olamsiz tasavvur qilish qiyin bo'lmoqda. Bugungi kun pedagogikasida ularni media va virtuallilikdan cheklash emas balki undan to'g'ri foydalanish xususiyatini shakllatirishga e'tibor qaratmoqda. Odatda, „Raqamli olam aborigeni” va „raqamli muhujir” tushunchalaridan ushbu avlod vakillarini farqlash uchun foydalanadilar: raqamli madaniyat muhitida tug'ilgan va internet bilan katta bo'lgan yoshlarning ushbu madaniyat doirasida o'zini tutishi kompyuterlar, internet va raqamli o'yinlar bilan yetuk yoshga yetganda tanishganlarga qaraganda o'zgacha. Axborot olish madaniyati, ya'ni axborot savodxonligi bo'yicha xorijiy mamlakatlarga nazar solinsa, kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Yurtimizda ham muhtaram prezidentimiz tashabbuslari bilan 2023-yil 11-sentabrdagi farmoni bilan maktablarda 1-sinfdan kompyuter savodxonligi darslari joriy etish, o'quvchilarning xat savodi bilan birga axborot savodxonligi mediamadaniyatini shakllantirish nazarda tutildi. Rivojlanayotgan zamonda kelajak avlodni bilim salohiyatini oshirish kreativ fikrlashga yo'naltirish muhum vazifa hisoblanadi.

Yuqorida fikrlarimizdan xulosa qilib aytishimiz mumkinki ta'limning zamonaviy jamiyat hayotida o'rni ko'p jihatdan axborot jamiyatni axborot sivilizatsiyasini shakllantirish, ta'limni axborotlashtirish tushunchalarida o'z aksini topadigan bilim va ma'lumotlarning o'sib borayotgan roli bilan belgilanadi. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq axborot va bilim jamiyatning asosiy o'zgartiruvchi kuchiga aylanadi. O'quvchilarida axborot istemoli madaniyati oshirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining, turli bemanli o'yinlar shunga o'xshash saytlardan bilib bilmay kirib qolishlaridan saqlashga yordam beradi. O'zining kimligini, o'zligini bilgan inson ota-onasi, ona vatan, vatanparvarlik degan muqaddas qadriyatlarning tub mohiyatini anglashga qodir bo'ladi deb o'ylayman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.
2. Yo'ldoshev Y. "Bolalarga bola bo'lib yozmoq bor" "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2009 -yil. 16-noyabr.
3. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2004.
4. Shodiyeva Sh. "Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi va gap ustida ishslash metodikasi" BMI Samarqand-2016.
5. Rahmatova, F. A., & Akramova, Z. B. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING MANTIQIY TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISHNING

PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING  
INTEGRASIYASI, 3(4), 133-137.

6. Abrorxonova, K., & Boriyeva, S. (2022). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AXBOROT BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(B8), 2103-2109.
7. Abrorxonova, K. A. (2023). INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O 'QUVCHILARINING O 'GZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 31(3), 3-6.
8. Abrorxonova, K. A., & Feruza, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA KITO BXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 31(2), 160-163.
9. Abrorxonova, K., & Murodova, M. (2022). FORMATION OF LINGUISTIC COMPETENCIES BASED ON THE ANALYSIS OF WORD COMBINATIONS. *Science and Innovation*, 1(8), 2082-2088.
10. Abrorxonova, K. A. Q., & Bo'Riyeva, S. I. Q. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O'QUVCHILARINING MEDIAMADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 778-782.
11. Abrorxonova, K., Rahmatova, F., & Dehqonboyev, M. (2022). TECHNOLOGY OF FORMING THE VIRTUE OF TOLERANCE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Science and Innovation*, 1(7), 362-367.
12. Abrorxonova, K., & Pirnazarova, K. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B8), 2089-2096.

#### ELEKTRON AXBOROT RESURSLARI:

1. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=ir4TsBUAAAAAJ&citation\\_for\\_view=ir4TsBUAAAAAJ:M3ejUd6NZC8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ir4TsBUAAAAAJ&citation_for_view=ir4TsBUAAAAAJ:M3ejUd6NZC8C)
2. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=ir4TsBUAAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation\\_for\\_view=ir4TsBUAAAAAJ:4TOpqqG69KYC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ir4TsBUAAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=ir4TsBUAAAAAJ:4TOpqqG69KYC)